



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-sentabr

137-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimiligi

Tumandagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan 6 yoshli bolalarni mакtab ta'limiga sifatli tayyorlash bo'yicha maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdag'i "Balalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 6-, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdag'i 132-sonli qarori hamda tuman Maktabgacha va mакtab ta'limi bo'limining 2024-yil 10-sentabrdagi 01-07/1956- sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdag'i 132-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, tuman Maktabgacha va mакtab ta'limi bo'limining tumandagi umumiyo'rtta ta'lim maktablarida bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlash bo'yicha ta'lim va tarbiya guruhlari tashkil etish yuzasidan taqdim etgan taklifi ma'qullansin.

3. Tumandagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan 6 yoshli bolalarni mакtab ta'limiga sifatli tayyorlash bo'yicha maktabgacha ta'lim guruhlarini ilovaga asosan tashkil etish maqsadga muvofiq deb topilsin.

4. Tuman Maktabgacha va mакtab ta'limi bo'limi (G.Abdullayeva) hamda maktabgacha ta'lim guruhlari tashkil etadigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga:

belgilangan umumiyo'rtta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya guruhlari tashkil etishni tavsiya etish;

yangi tashkil etiladigan guruhlarni malakali pedagog-kadrlar bilan ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayonlarini belgilangan talablar va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilishini qat'iy nazoratga olsin.

5. Tuman Maktabgacha va mакtab ta'limi bo'limi (G.Abdullayeva):

umumiyo'rtta ta'lim ta'lim maktablariga belgilangan tartibda ta'lim va tarbiya guruhlari ochishishlarini tashkil etish uchun bo'sh turgan xonalarni ajratib bersin.

6. Tuman Moliya bo'limi (I.Beknazarov)ga:

Ta'lim va tarbiya guruhlari tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining shtatlar jadvali va xarajatlari smetasini belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish vazifasi yuklatilsin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinnbosari (M.Tulegenov) zimmasiga yuklatilsin.

Konimex tumani hokimi



**RO'ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH**

Konimex tuman hokimining
2024-yil 11-sentabrdagi
137-5-70-Q/24-son qaroriga
1-ilova

T/r	MFY nomi	Biriktirilgan DMTT	Tashkil etiladigan joy	Guruh soni	Bola soni
1	Baymurat OFY	5-DMTT	11-maktab	1	20